

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

4-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Maxmudov Mansurjon Abdug'opporovich

TARIXIY ASARLAR VA ULARNI O'RGANISH: MILLIY ZIYOLILAR TOMONIDAN

OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR 12-17

Qurbonov Xurshid Raupovich

O'ZBEKISTONDAN JANUBIY URALGA SAFARBAR QILINGAN

"MEHNAT ARMIYACHILARI" VA ULARNING TA'MINOTI 18-22

Salayev Fazliddin Shamsiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA DEMOGRAFIYANING RIVOJLANISH TARIXI VA SHAKLLANISHI 23-28

Abbasov Behzod Baxtiyorovich

FARG'ONA OBLASTIDA TASHKIL QILINGAN XO'JALIKLARDA IJTIMOIIY

MUAMMOLAR VA KO'CHIRILGAN AHOLINING YANGI SHAROITGA MOSLASHISHI

(1946-1965)..... 29-35

Mirzaliyev Ulug'bek, Klichev Ulug'bek

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY ARXIVLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

BORASIDAGI ISHLAR VA ISLOHOTLAR 36-39

Tursunova Gavhar Begmuradovna

ROSSIYA IMPERIYASINING SIRDARYO VILOYATIDA OLIB BORGAN

MA'MURIY-SIYOSIY BOSHQARUV TIZIMI

(XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARI) 40-50

Vaxobov Doston Abdumannob o'g'li

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA MAKTAB, TIBBIYOT VA SOG'LIQNI SAQLASH

XODIMLARINING G'ALABAGA QO'SHGAN HISSASI 51-54

Sodiqova Yulduzxon Maxamat qizi

O'ZBEKISTONDA MAKTAB TA'LIMINI ISLOH QILINISHI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR

(1991-2024 yy)..... 55-59

Maxmudov Umrbek Baxtiyorovich

QUYI SIRDARYOBO'YI HUDUDLARIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK

TADQIQOTLAR VA ULARNING NATIJALARI 60-64

Yo'ldosheva Gulbahor Nuriddinovna

MUSTAQILLIK YILLARIDA O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING

AHVOLI VA MODDIY – TEXNIKA BAZASINING MUSTAHKAMLANISHI

(QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI MISOLIDA)..... 65-69

Mardiyeva Guzal Karimovna

XOTIN-QIZLARNING 1950-1980-YILLARDA SAMARQAND VILOYATI

ILM-FAN SOHASINI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNINI 70-75

Narziyev Rustambek Xaydarovich

HARAKATLAR STRATEGIYASIDA NOGIRONLIGI BOR YOSHLAR UCHUN

YARATILGAN IMKONIYATLAR 76-80

<i>Abdullayev Ilhomjon Ikromjonovich</i> XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA NAMANGAN SHAHRINING IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTI	81-87
<i>Sodiqova Maxbubaxon Raxmonaliyevna</i> O'ZBEKISTONNING MILLIY HUNARMANDCHILIGI RIVOJIDA IPAKCHILIKNING O'RNI	88-92
<i>G'ulomjon Jumanazarovich Axmedov</i> O'ZBEKISTON TARIXIDA KONCHILIK ISHI VA METALLURGIYA RIVOJLANISHI	93-99

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i> BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	100-116
<i>Юлдашева Надира Викторовна</i> «ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ЗАКУПКИ ПОД КОНТРОЛЕМ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКОЙ МОДЕЛИ МОНИТОРИНГА».....	117-123
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i> ERKIN IQTISODIY ZONALARDA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	124-128
<i>Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li</i> TURISTIK VA REKREATSION KLASTERNING MUVAFFAQIYATLI FAOLIYAT YURITISH TAMOYILLARINI TIZIMLASHTIRISH	129-135
<i>Xadimova Aziza Abdufattoyevna</i> SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHI.....	136-145
<i>Tashpulatov Giyos Toxirovich</i> XORIJIY BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR REYTINGI VA RENKINGINI BAHOLASHDA KOMPLEKS YONDASHUVNING QO'LLANILISHI TAHLILI (ROSSIYADAGI BAHOLOVCHI TASHKILOTLAR MISOLIDA)	146-159
<i>Ulug'muradova Nodira Berdimuradovna</i> O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHDA INSON KAPITALINING TA'SIRI	160-164
<i>Tursunxodjayeva Shirin Zafar qizi</i> “QUTIDA RO'YXATGA OLISH” (SHELF-REGISTRATION) AMALIYOTINI JORIY ETISH	165-169

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Komilov Ro'zi Rabiyeovich</i> OILA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA MODDIY VA MA'NAVIY OMILLARNING FALSAFIY TAHLILI	170-172
<i>Хакимов Эркин</i> ЗНАНИЕ ЛОГИКИ КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ МЫШЛЕНИЯ В ИНФОРМАЦИОННОМ ОБЩЕСТВЕ	173-180
<i>Usmonova Laylo Raxmatullayevna</i> SHARQ FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI.....	181-185
<i>Karimov Yo'ldosh Ergashevich</i> TARIXNI SOXTALASHTIRISHNING TARIXIY TAFAKKURGA TA'SIRI MASALALARI	186-191

<i>Agzamxodjaeva Шахноза Саидматмабевна</i> О ЦЕЛИ И СОДЕРЖАНИИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОЙ ЖИЗНИ, ДУХОВНОМ СОВЕРШЕНСТВЕ (ПО ПРОИЗВЕДЕНИЯМ АЛИШЕРА НАВАИ).....	192-195
<i>Rustamov Ramz Rizoqulovich</i> ZAMONAVIY IQTISODIY TARG'IBOT VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	197-204
<i>Evatov Salimjon</i> MARKAZIY OSIYODA TASAVVUFY TAFAKKUR RIVOJI: IX-XII ASRLAR MEROSI	205-209
<i>Turobov Yorqinjon Yoqub o'g'li</i> ISLOM TA'LIMOTIDA SIYOSAT VA HOKIMIYAT FALSAFASI	210-213
<i>Toshpulatov Odil Nodirovich</i> IJTIMOIY MUNOSABATLARDA AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLISHDA MAVJUD ME'YORLARNING AHAMIYATI	214-217
<i>Kunisheva Nadira Julanovna</i> "IJTIMOIY BAG'RIKENGLIK" TUSHUNCHASINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI	218-223
<i>Eshpulatov Inoyat</i> FAXRIDDIN ROZIY YASHAGAN DAVR: IJTIMOIY-SIYOSIY VAZIYAT VA MA'NAVIY MUHIT	224-231
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Nuniyazova Shaxlo Ulugbekovna</i> O'ZBEK ONOMASTIKASIDA GIDRONIMLARNING LINGVOMADANIY SHAKLLANISHI	232-236
<i>Алиева Эльвина Аметовна</i> ЛЕКСИЧЕСКИЙ И ЛЕКСИКО-СИНТАКСИЧЕСКИЙ ПОВТОРЫ С РАСПРОСТРАНЕНИЕМ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ОЧЕРКАХ М. ЦВЕТАЕВОЙ	237-243
<i>Usmanova Sevara</i> INGLIZ VA O'ZBEK TARIXIY ROMANLARIDA TARIXIY HAQIQAT VA BADIY TO'QIMA.....	244-251
<i>Ochilov Ulug'bek Sayfulloyevich</i> MAGIK REALIZMNING MADANIYAT VA ADABIYOTGA TA'SIRI	252-260
<i>Daminova Rahima Malikovna</i> ATOYI SHE'RIYATINING BADIY LATOFATI.....	261-266
<i>Yusupov Asror</i> PUBLITSISTIK MATNLARDA UCHROVCHI LINGVOKULTUROLOGIK BIRLIKLAR TARJIMASIGA LEKSIKOGRAFIK YONDASHUV	267-271
<i>Ruziyeva Nasiba Kenjayevna</i> VLADIMIR GEORGEVICH GAKNING TARJIMA MASALALARIGA DOIR TADQIQOTLARI	272-276
<i>Batirkhanova Madina Oybekovna</i> COMPONENT ANALYSIS OF SOMATIC PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH FICTION.....	277-281
<i>Sirojiddinova Shakhribonu</i> THE FORMATION OF MYTHOLOGY AND THE INFLUENCING FACTORS.....	282-285

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Xodjiev Yunus Muxitdinovich

DAVLAT XIZMATLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY XIZMATLAR
TUSHUNCHASI HAMDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI 286-292

Wang Cong

RESEARCH ON LEGAL ISSUES OF PERSONAL INFORMATION PROTECTION 293-300

Лу Адук

К ВОПРОСУ О ПОНЯТИИ И КЛАССИФИКАЦИИ ВИДОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ
ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ 301-310

Abdurashidova Zarina Turg'un qizi

FUQAROSIZLIKKA QARSHI MUROSASIZLIK: HUQUQIY CHORALARNING
NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI 311-315

Axmatov Olimjon Odilovich

“KRIPTO-AKTIVLAR VA VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF
RAVISHDA Olish, O'TKAZISH VA AYIRBOSHLASH: IQTISODIY, HUQUQIY
XAVF-XATARLAR VA ULARNING OLDINI Olishda SUN'IY INTELLEKTNING
O'RNI” 316-322

Xatamov To'liqin Tojiddinovich

KUCHLI TA'SIR QILUVCHI VA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI YANGI
TURLARINI NOQONUNIY MUOMALASI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY TAHLILI 323-329

Kuchimova Shaxlo

VORISLIK HUQUQIDA MEROS MAJBURIYATI 330-337

O'rinova Dilshoda Adhamovna

OILAVIY ZO'RAVONLIK JINOYATINING KRIMINOLOGIK TAVSIFI
HAMDA USHBU TURDAGI JINOYATLARDAGI AYOLLAR JABRLANISHINI
OLDINI Olish BO'YICHA FARG'ONA TAJRIBASI 338-347

Geng Zhimin

RESEARCH ON THE INDEPENDENCE OF THE INTERNATIONAL CRIMINAL COURT..... 348-351

Xidirov Mexroj Qilich o'g'li

ELEKTRON TO'LOV VOSITALARI ORQALI SODIR ETILADIGAN FIRIBGARLIK
JINOYATLARINING SABABLARI, ULARNING SODIR ETILISHIGA IMKON
BERUVCHI OMILLAR 352-357

Тулаганов Элмурод

ВОПРОСЫ ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ КОРРУПЦИИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ
ТРАНСФОРМАЦИИ 358-367

Bozorboyev Farruh, Boboxonov Akromxon

DASTLABKI TERGOV BOSQICHIDA PROTSESSUAL HARAKATLARNI
SODDALASHTIRISH: XOLIS INSTITUTI 368-374

Abbosov Mirsulton Mirsharof o'g'li

JINOYAT QONUNCHILIGIDA SUN'IY INTELLEKT TUSHUNCHASI VA UNING
IJTIMOIY XAVFLILIGI 375-382

<i>Mamatov Islom Qosim o'g'li</i> DAVLAT XARIDLARI BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH ETISH USULLARI, AMALIYOTDAGI MUAMMOLAR VA TAKLIFLAR	383-392
<i>Kamilov Oybek</i> O'ZBEKISTONNING MIGRATSIYA SOHASIDA MINTAQAVIY TASHKILOTLAR VA XORIJIY DAVLATLAR BILAN HAMKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	393-402
<i>Абророва Камола Саидмухторовна</i> ВЛИЯНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО КОММЕРЧЕСКОГО АРБИТРАЖА НА ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ УЗБЕКИСТАНА: ПРОБЛЕМЫ, РЕШЕНИЯ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ	403-410
<i>Ne'matova Muborak Odiljonovna</i> RAQAMLI FUQAROLIKNING MOHIYATI VA UNI SHAKLLANTIRISHGA OID DOLZARB MUAMMOLAR (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA)	411-418
<i>Jabbarova Yulduz Ibrohim qizi</i> "HUQUQNI QO'LLASH AMALIYOTIGA SUN'IY INTELEKTNI INTEGRATSIYA QILISHNING AXLOQIY VA HUQUQIY MASALALARI"	419-427
<i>Agzamova Qizlarxon Baxtiyorovna</i> INSOFLI EGALLOVCHINING HUQUQIY MAQOMIGA OID AYRIM MASALALAR	428-432
<i>Shomirzayev Saxodulla, Sherkulov Azamat</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI BOJXONA CHEGARASIDAN OLIB O'TISH BILAN BOG'LIQ HUQUQBUZARLIKLARNI ANIQLASH VA JAVOBGARLIK ASOSLARI	433-441
<i>Jumanazarov Faxriddin Erkinovich</i> KONTRAFKAT MAHSULOTLAR KONTRABANDASI NATIJASIDA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI BUZILISHINING NAZARIY-HUQUQIY JIHATLARI	442-448
<i>Ergashev Sharifjon Shuhrat o'g'li</i> YASHIRIN IQTISODIYOTNING JAMIYAT IJTIMOY-IQTISODIY FAOLIYATIGA TA'SIRI VA UNGA QARSHI KURASHISHDA BOJXONA AUDITINING O'RNI	449-457
<i>Mansurov Arslon Askarovich</i> "IJTIMOIY DAVLAT" TAMOYILINING YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI HUQUQIY MAQOMI VA XALQARO TAJRIBA BILAN TAQQOSLAMA TAHLILI	458-463

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> "JISMONIY MADANIYAT NAZARIYASI VA METODIKASI" FANIDAN NAZARIY MASHG'ULOTLARNI O'TKAZISH METODIKASI	464-470
<i>Yusubjanova Musharraf Tursunali qizi</i> EHTIMOLLAR NAZARIYASI VA MATEMATIK STATISTIKANI UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QITISH: XORIJIY TAJRIBA VA ILMIY YONDASHUVLAR	471-475
<i>Fayzullayeva Gulchexra, Kurbonova Gulmira</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOLLABORATIV O'QUV MUHITINI LOYIHALASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA ISTIQBOLLAR	476-481

<i>Yaqubov Fazliddin Muxitdinovich</i> ILMIY-TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINING MAZMUNI VA TARKIBIY TUZILISHI.....	482-485
<i>Mirsanova Moxira Xusniddin qizi</i> FANTASTIK IFODA SHAKLLARI VA UNING BADIYYATI	486-491
<i>Tursinova Zoxida Sharabidinovna</i> TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA MAKTAB O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MAHORATINI BAHOLASH MEKANIZMLARINING TAKOMILLASHUVIDA TA'LIM MENEJMENTINING O'RNI	492-496
<i>Раббимова Нодира Таштемировна</i> ТЕХНОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ПРИ ПРЕПОДАВАНИИ ИНФЕКЦИОННЫХ БОЛЕЗНЕЙ В ВУЗЕ	497-501

08.00.00-IQTISODIYOT FANLARI – ECONOMICAL SCIENCES**Received:** 16 March 2025**Accepted:** 5 April 2025**Published:** 15 April 2025*Article / Original Paper***UZBEKISTAN EXPERIENCE IN PROMOTING FISCAL DISCIPLINE AND BUSINESS ENVIRONMENT THROUGH SUSTAINABILITY RATING****Abdullayev Zafarbek Safibullayevich**

Independent Researcher (DSc)

Tashkent State University of Economics

E-mail: zafarbek.abdullayev555@gmail.com

Abstract. This article analyzes the role of the business entity stability rating system introduced in the Republic of Uzbekistan in strengthening fiscal discipline, improving the business environment, and fostering trust between the public and private sectors. The rating system evaluates entities based on 23 comprehensive indicators, including economic efficiency, financial discipline, fulfillment of tax obligations, social responsibility, and the level of digitalization. The article outlines the incentivizing and penalizing principles of the rating system, its legal framework, and provides a comparative analysis with international practices (S&P, ESG, Doing Business). It is substantiated that the implementation of the stability rating contributes to digital and targeted economic governance in Uzbekistan through tax administration automation, early identification of fiscal risks, and differentiated incentives for compliant business entities.

Keywords: stability rating, fiscal discipline, economic efficiency, business environment, financial stability, tax compliance, rating system, incentive mechanism, digitalization, Uzbekistan experience, international experience, S&P, ESG.

BARQARORLIK REYTINGI ORQALI FISKAL INTIZOM VA BIZNES MUHITINI RAG'BATLANTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI**Abdullayev Zafarbek Safibullayevich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

mustaqil tadqiqotchisi (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida joriy etilgan tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi fiskal intizomni mustahkamlash, biznes muhitini sog'lomlashtirish va davlat-xususiy sektor o'rtasidagi ishonch muhitini rivojlantirishdagi o'zni nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Reyting tizimi doirasida iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy intizom, soliq majburiyatlarini bajarish, ijtimoiy mas'uliyat va raqamlashtirish darajasi kabi 23 ta kompleks ko'rsatkich asosida baholash amalga oshiriladi. Maqolada reyting tizimining rag'batlantiruvchi va jazolovchi tamoyillari, ularning normativ-huquqiy asosi, shuningdek xalqaro reyting amaliyotlari (S&P, ESG, Doing Business) bilan qiyosiy tahlili keltirilgan. Barqarorlik reytingining joriy etilishi O'zbekistonda soliq boshqaruvini avtomatlashtirish, fiskal xavflarni oldindan aniqlash va intizomli subyektlarni differensial rag'batlantirish orqali iqtisodiyotni raqamli va manzilli boshqarishga xizmat qilayotgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: barqarorlik reytingi, fiskal intizom, iqtisodiy samaradorlik, biznes muhit, moliyaviy barqarorlik, soliq intizomi, reyting tizimi, rag'batlantiruvchi mexanizm, raqamlashtirish, O'zbekiston tajribasi, xorij tajribasi, S&P, ESG.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I4Y2025N17>

Kirish. Hozirgi davrda zamonaviy iqtisodiyotda davlat ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tartibga solishda muhim rol o'ynaydi. Buning uchun davlat tomonidan ishlatiladigan asosiy mexanizmlardan biri soliq siyosatidir. Soliqlar orqali tadbirkorlik faoliyatini tartibga solish davlatning iqtisodiyotga ta'sirining samarali usuli hisoblanadi. Soliq stavkalari va imtiyozlari orqali davlat tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirishi yoki cheklashi mumkin. Ayrim faoliyat turlari yoki muayyan sohalarga investitsiyalarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirish imkoniyati mavjud.

Barqarorlik reytingini joriy qilish ahamiyati haqida davlat rahbarining tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida ta'kidlangan. Uning mezonlari va tartib-tamoyillari ishlab chiqilib, reyting tadbirkorlar uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida e'tirof etilgan. "Tadbirkorlar sinfi jamiyatda yetakchi kuchga aylanmoqda, yoshlar ularga qarab intilmoqda. Ushbu reyting orqali tadbirkorlar o'rtasida qonunlarga itoat qilish, intizomli va faol bo'lishni rag'batlantirish zarur. Buni joriy qilish va samaradorligini ta'minlashda Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamoat kengashining o'rni katta bo'lishi kerak" [1].

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini shakllantirish va baholash borasida xalqaro ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar va konseptual qarashlar mavjud. Bu yondashuvlar iqtisodiy o'sish nazariyasi, innovatsion rivojlanish, raqobat ustunligi, davlat siyosati hamda tadbirkorlik muhitining sifati kabi omillar bilan bevosita bog'liqdir.

R. Solow (1988) o'zining "Growth Theory: An Exposition" asarida iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi asosiy omillar tarkibida tadbirkorlik subyektlarining barqarorligini ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, texnologik yutuqlar bilan bir qatorda institutsional va boshqaruv barqarorligi ham iqtisodiy o'sishning poydevorini tashkil etadi [2].

W.J. Baumol (1996) tomonidan tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi o'rni tahlil qilinarkan, u samarali muhit yaratish uchun davlatning rag'batlantiruvchi va tartibga soluvchi siyosatini muhim deb hisoblaydi. Uning yondashuvi bugungi kunda reyting tizimlarining shakllanishiga nazariy asos yaratadi [3].

J.A. Timmons (1989) esa barqaror tadbirkorlikni o'zgaruvchan iqtisodiy va institutsional muhitga tez moslasha oladigan, innovatsion salohiyatga ega va yangiliklarni qabul qilishga qodir subyekt sifatida tavsiflaydi. Timmons modeli risk va barqarorlikni integratsiyalashgan holda baholash zaruratini ta'kidlaydi [4].

Kuckertz & Wagner (2010) barqaror tadbirkorlik mezonlarini ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar birligi asosida tizimli yondashuv orqali baholashni taklif etadi. Bu yondashuv reyting tizimlarini shakllantirishda mezonlararo bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga imkon beradi [5].

Tivonen, Korhonen & Jussila (2019) tomonidan amalga oshirilgan bibliometrik tadqiqot barqaror tadbirkorlik sohasidagi ilmiy izlanishlarning evolyutsiyasi, metodologik yondashuvlari va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlaydi [6].

S. Shane (2003) o'zining "A General Theory of Entrepreneurship" asarida tadbirkorlik faoliyatini qaror qabul qilish, motivatsiya va resurslardan foydalanish kontekstida tahlil qiladi. U, ayniqsa, muvozanatli muhitda samarali ishlaydigan tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy barqarorligiga urg'u beradi [7].

Z. Acs va D. Audretsch (2005) "Handbook of Entrepreneurship Research: An Interdisciplinary Survey and Introduction" asarida innovatsion tadbirkorlikni iqtisodiy o'sish

drayveri sifatida ko'rib chiqib, kichik korxonalar barqarorligi va innovatsion salohiyat o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor qaratadi [8].

M. Casson (2003) tadbirkorni axborot asosida qaror qabul qiluvchi agent sifatida ta'riflab, barqarorlik mezonlarini aniqlashda axborot asimmetriyasi va shaffoflikni baholashni taklif qiladi. Bu yondashuv elektron reyting platformalari uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [9].

M. Porter (2008) tomonidan ishlab chiqilgan raqobat ustunligi nazariyasi va klaster yondashuvi esa barqarorlikni hududiy va sohaviy nuqtai nazardan baholashga imkon beradi. U innovatsion muhit, institutlar va davlat siyosatining uyg'unlashuvi orqali barqarorlikni oshirish mumkinligini ta'kidlaydi [10].

OECD (2017) ([*Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti*](#)) tashkilotining "Entrepreneurship at a Glance" va "Measuring Entrepreneurial Performance" kabi hisobotlarida esa tadbirkorlikni baholashda statistik yondashuvlar, ko'rsatkichlar tizimi va indikatorlar majmuasi ishlab chiqilgan. Bu materiallar O'zbekistonda joriy etilgan 23 ta reyting mezonining xalqaro darajadagi o'xshashliklarini o'rganishda foydalidir [11].

O'zbekistonda barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlik subyektlari soliqlarni kamaytirish yoki to'lamaslik huquqiga ega emaslar, biroq davlat tomonidan qator rag'batlantiruvchi choralar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, **Sh.Nurmatov** [16] o'z tadqiqotlarida shuni qayd etadiki "Barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan tadbirkorlar soliqlardan to'liq ozod qilinmasa-da, ular davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslar, investitsiya yordami va boshqa preferensiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar". Shu nuqtai nazardan, reyting tizimi soliq yengilliklari bilan bir qatorda biznes muhitining shaffofligi va soliq intizomini oshirishga xizmat qiladi.

U.Normurzaev [17] ilmiy ishlarida "Soliq imtiyozlari — soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati hamda soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshirish kerakligini maqsadga muvofiq" — deb hisoblaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida 2024-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy etilishi Prezident qarori (PQ-39, 23.01.2024) va Vazirlar Mahkamasining qarorlari (VMQ-55, 30.01.2024; VMQ-428, 16.07.2024) asosida huquqiy jihatdan mustahkamlangan [12,13,14]. Ushbu tizim 23 ta mezon asosida shakllantirilib, tadbirkorlar faoliyati elektron platforma orqali baholanadi.

Ushbu tadqiqotda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini shakllantirish va uning samaradorligini baholash masalasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Metodologiya quyidagi asosiy yo'nalishlarga tayandi:

- **Reyting mezonlari tahlili:** 23 ta baholash mezonining funksional yuklamasi va ular o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanib, ularning tadbirkorlik subyektlari barqarorligiga ta'siri baholandi.
- **Qiyosiy tahlil:** O'zbekiston tajribasi xalqaro (OECD, AQSh, Germaniya) yondashuvlar bilan solishtirildi.
- **Statistik va amaliy tahlil:** 2024-yilgi reyting natijalari asosida soha va hududlar kesimida empirik tahlillar o'tkazildi.

- **Axborot texnologiyalari asosida baholash:** Reytingni shakllantirishda elektron platformalardan foydalanish tamoyillari, shaffoflik va avtomatlashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining aniqligi, xolisligi va amaliy qiymatini ta'minlashga xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy va tashkiliy jihatdan barqaror faoliyat yuritishi nafaqat ularning ichki resurslariga, balki tashqi iqtisodiy va institutsional omillarga ham bog'liqdir. Shu bois, barqarorlik reytingi tushunchasi zamonaviy iqtisodiy nazariyada korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, moliyaviy holati, fiskal intizomi va ijtimoiy mas'uliyat darajasini baholovchi kompleks ko'rsatkichlar tizimi sifatida qaraladi.

Reytinglar iqtisodiy nazariyada resurslar taqsimoti va preferensiyalarni aniqlashda axborot asimmetriyasi muammosini bartaraf etuvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Masalan, Akerlof (1970) tomonidan ishlab chiqilgan "Limonlar bozori" nazariyasida bozordagi ishonch muammosi resurslar noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelishi qayd etilgan [15]. Shu nuqtai nazardan, barqarorlik reytingi davlat, investorlar va moliyaviy institutlarga ishonchli axborot manbai bo'lib xizmat qiladi. Nazariy jihatdan, reyting tizimlari quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

1. **Shaffoflik va hisobdorlik** – subyektlarning faoliyati aniq mezonlar asosida baholanadi;
2. **Tenglik va xolislik** – barcha tadbirkorlik subyektlariga bir xil mezonlar qo'llaniladi;
3. **Motivatsiya va rag'batlantirish** – yuqori reytingga ega subyektlar uchun imtiyozlar ko'zda tutiladi;
4. **Axborot almashinuvi va raqamlashtirish** – reyting tizimi elektron platforma orqali avtomatik tarzda shakllantiriladi.

Barqarorlik reytingining joriy etilishi, bir tomondan, tadbirkorlik subyektlarini soliqqa oid majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishga undasa, boshqa tomondan, ularning faoliyatida ijtimoiy mas'uliyat, samaradorlik va institutsional ishonchni oshirishga xizmat qiladi. Bu esa makroiqtisodiy barqarorlik va budget tushumlarining prognozligini ta'minlashda muhim nazariy-empirik vosita hisoblanadi.

Barqarorlik reytingi zamonaviy iqtisodiyotda institutsional iqtisodiyot, axborot nazariyasi va rag'batlantiruvchi iqtisodiyot konsepsiyalarining kesishgan nuqtasida shakllanadi. U davlat siyosatini yanada manzilli, samarali va maqsadli yo'naltirishga imkon beruvchi muhim boshqaruv mexanizmidir.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini (1-jadval) joriy etish O'zbekistonda tadbirkorlik muhitini sog'lomlashtirish, soliq intizomini mustahkamlash, biznes muhitda raqobatbardoshlikni oshirish, rag'batlantiruvchi mexanizmlarni shakllantirish hamda raqamli boshqaruv tamoyillarini keng joriy etishning strategik yo'nalishlaridan biridir. Ushbu reyting tizimi orqali yuridik shaxslarning faoliyati iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy intizom, soliqqa rioya qilish va institutsional barqarorlik darajalari bo'yicha kompleks, obyektiv va shaffof mezonlar asosida avtomatlashtirilgan usulda baholanadi.

1-jadval

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi¹

Barqarorlik darajasi	Reyting ko'rsatkichi	Baho
Yuqori	AAA	96-100 ballgacha
	AA	91-95 ballgacha
	A	86-90 ballgacha
O'rta	BBB	76-85 ballgacha
	BB	66-75 ballgacha
	B	56-65 ballgacha
Qoniqarli	CCC	51-55 ballgacha
	CC	36-50 ballgacha
	C	26-35 ballgacha
Quyi	D	25 ballgacha

Reyting tizimi iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy intizom va institutsional barqarorlik mezonlarini o'z ichiga olgan, 3 asosiy guruhga bo'lingan 23 ta ko'rsatkich asosida shakllantiriladi. Ushbu tizim nafaqat soliq intizomini baholash, balki korxonaning umumiy biznes barqarorligini, ijtimoiy mas'uliyatini va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini ko'rsatadi. Mezonlarning har biri raqamli ma'lumotlar asosida avtomatlashtirilgan algoritmlar orqali tahlil qilinadi, bu esa baholash jarayonining aniqligi, shaffofligi va inson omilidan xoli bo'lishini ta'minlaydi.

Barqarorlik reytingi ball tizimi asosida shakllantirilib, 23 ta mezon bo'yicha baholanadi. Reyting natijalari "AAA", "AA", "A" kabi yuqori toifalarga ajratilib, har bir toifa uchun quyidagi **rag'batlantiruvchi** choralar belgilangan:

- **"AAA" reytingi:** Soliq tekshiruvlaridan ozod qilinadi (jinoiy ishlar doirasidan tashqari), shuningdek, qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) summasi **bir kun ichida** tekshiruvlarsiz qaytariladi;
- **"AA" reytingi:** Davlat aktivlari va yer maydonlarini **bo'lib-bo'lib to'lash** sharti bilan olishga ruxsat etiladi, bu holatda dastlabki 15% to'lovdan so'ng qolgan summa bo'yicha **Markaziy bank stavkasidan ozod etilgan holda 5 yilgacha** kechiktirish imkoniyati yaratiladi;
- **"A" reytingi:** Barcha soliqlar bo'yicha (QQSdan tashqari) ortiqcha to'lovlar **3 kun ichida** qaytariladi, import va realizatsiya bo'yicha QQSni o'zaro hisobga olish tartibi joriy etiladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur rag'batlantirish choralaridan **davlat korxonalari va ustav fondida 50% dan ortiq davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar** foydalana olmaydi. Bu esa erkin raqobat muhitini ta'minlash va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan institutsional siyosatning ifodasidir.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi iqtisodiyotda tartib-intizomni kuchaytirish, soliq siyosatini manzilli yo'naltirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilashda kuchli nazariy va amaliy ahamiyatga ega. U davlatning strategik boshqaruv vositasi sifatida ishlamoqda.

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan ishlanma.

Yuqorida ta’kidlaganidek, ushbu reyting tizimi iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy intizom va institutsional barqarorlikka doir 23 ta ko’rsatkichdan iborat bo’lib, u korxonaning soliq intizomi, umumiy barqarorligi, ijtimoiy mas’uliyati va uzoq muddatli rivojlanish salohiyatini baholaydi. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash metodologiyasi iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy intizom va institutsional barqarorlik mezonlari asosida shakllantirilgan bo’lib, **10 ta umumiy, 9 ta kamaytiruvchi (salbiy) va 4 ta qo’shimcha (rag’batlantiruvchi)** ko’rsatkichlar majmuasini o’z ichiga oladi. Reyting mezonlari miqdoriy va sifat ko’rsatkichlarga tayangan holda balli baholash tizimi orqali tahlil qilinadi, bu esa baholashning shaffofligi, obyektivligi va avtomatlashtirilganligiga xizmat qiladi.

Umumiy ko’rsatkichlar (10 ta) – bu mezonlar tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yuritish davomiyligi, moliyaviy natijalari (shu jumladan foyda, aktivlar, daromad), soliq majburiyatlarini bajarish intizomi, elektron hisobvaraqa-faktura (EHF) aylanishi, ish haqi fondining barqarorligi, byudjet oldidagi qarzдорlik darajasi va boshqa moliyaviy intizom ko’rsatkichlari orqali baholanadi (2-javdal). Bu mezonlar orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi, fiskal mas’uliyati va uzluksiz faoliyat yuritish qobiliyati obyektiv tarzda aniqlanadi. Shuningdek, bu ko’rsatkichlar tadbirkorning uzoq muddatli strategik rivojlanish salohiyati haqida ham muhim ma’lumot beradi.

2-javdal

Tadbirkorlik subyekti faoliyatini baholashning umumiy mezonlari¹

T/r	Umumiy mezon nomi	Baholash max.ball	Ta’sir chora	Baholash metodikasi	Mezonni hisoblash davri
1.	Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davri	10 ball	yo’q	Davlat ro’yxatidan o’tgan sanasi bo’yicha [5]:	Yillik
				<i>Har bir yil uchun 2 balldan beriladi;</i>	
				<i>5 yil va undan ortiq yil uchun 10 ball beriladi.</i>	
2.	EBITA bo’yicha rentabellik darajasi (EBITA margin = EBITA / sof tushum × 100%)	10 ball	yo’q	Sohaning o’rtacha ko’rsatkichidan:	Yillik
				<i>70% yuqori bo’lsa – 10 ball beriladi;</i>	
				<i>50-70% bo’lsa – 5 ball beriladi;</i>	
3.	Yer maydonlari (jumladan q.x. uchun uzoq muddatli ijaraga ajratilgan) va mulk huquqi yoki ijara huquqi asosida ko’chmas mulk obyektlari mavjudligi (ijara shartnomalari hisobga olinganligi)	10 ball	-5 ball	<i>Yer maydoni va ko’chmas mulk obyektlari o’ziga tegishli bo’lsa – 10 ball beriladi;</i>	Oylik
				<i>Yer maydoni va ko’chmas mulk obyektlari ijara shartnomasi bo’yicha faoydalanilayotgan bo’lsa – 7 ball beriladi;</i>	
				<i>Agar faoliyat ko’rsatilgan manzilda yuritilmayotgan bo’lsa - 5 ball chegiriladi.</i>	
4.	Iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha bir nafar xodimga	10 ball	-5 ball	O’rtacha ish haqi soha va hududning o’rtacha ko’rsatkichidan oshishi:	Oylik

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan ishlanma.

	to'g'ri keladigan ish haqi jamg'armasi dinamikasi.			100% va undan yuqori – 10 ball beriladi; 75-100% – 8 ball beriladi; 50-75% – 6 ball beriladi; 25-50% – 4 ball beriladi; 25% gacha – 2 ball beriladi. Agar o'rtacha ish haqi EKIHDan kam bo'lsa -5 ball chegiriladi.	
5.	Soliq hisobotlarini belgilangan muddatlarda taqdim etilishi	10 ball	yo'q	Hisobotlar kechiktirilmagan bo'lsa – 10 ball beriladi.	Oylik
6.	Hisoblangan soliq summasining belgilangan muddatda to'lanishi	10 ball	yo'q	Soliq (hisobot) davrida hisoblangan soliq summasini kechiktirmasdan to'lagan bo'lsa – 10 ball beriladi.	Oylik
7.	Hisoblangan soliq summasini to'lov topshiriqnomasi orqali amalga oshirilganligi	10 ball	-5 ball	Hisoblangan soliq summasini: To'lov topshiriqnomasi orqali to'lagan bo'lsa – 10 ball beriladi. Inkassa topshiriqnomasi orqali oshirilgan bo'lsa -5 ball chegiriladi.	Oylik
8.	Elektron hisobvaraqt-fakturalarni (EHF) qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirilishi holati	10 ball	yo'q	Belgilangan muddatda rasmiylashtirilgan EHFlar tovar aylanmasining: 100% bo'lsa – 10 ball; 75-100% – 7 ball; 50-75% – 5 ball; 25-50% – 2 ball; 25% gacha – 1 ball.	Oylik
9.	Elektron hisobvaraqt-fakturalar orqali yil davomida xarid qilingan tovarlarni realizatsiya amalga oshirilishi (Yil boshi va oxiridagi tovar)	10 ball	-5 ball	Yil davomida xarid qilingan tovarlarning: 50 foizidan 70 foizigacha realizatsiya qilinganda – 5 ball beriladi; 70 foizidan ortiq realizatsiya qilingan hollarda – 10 ball beriladi. 70 foizidan dan ortiq qoldiq qolganda -10 ball chegiriladi.	Yillik
10.	Soliq organlari axborot tizimlaridan foydalangan holda o'tkazilgan tahlildan oldingi natijada aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishi holati	10 ball	-5 ball	Soliq organlari axborot tizimida: kamchilik aniqlanmagan yoki asoslangan bo'lsa – 10 ball beriladi. kamchiliklar ixtiyoriy ravishda bartaraf etilgan bo'lsa – 7 ball beriladi; kamchiliklar bartaraf etilmagan va soliq auditi tayinlangan bo'lsa – 5 ball beriladi.	Kunlik

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda ishlatilayotgan 23 ta mezon ichida **“Faoliyatni baholashning umumiy mezonlari”** alohida o'rin egallaydi. Ushbu mezonlar subyektning moliyaviy, soliq, tashkilot va mehnat intizomi, shuningdek, huquqiy

faoliyat barqarorligini baholashga xizmat qiladi. Metodologik jihatdan ular **sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar asosida** baholanadi. Mazkur umumiy mezonlar jami **10 ta mezon** ko'rsatkichlari mavjud bo'lib, ular asosan quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- Tashkil etilganlik muddati va moliyaviy ko'rsatkichlar (EBITA);
- Mulk egaligi va ijaraga olingan obyektlar;
- Ish haqi darajasi va dinamika;
- Soliq hisoboti va to'lov intizomi;
- Elektron hujjatlar yuritilishi (EHF);
- Soliq organlari tahlili asosida aniqlangan holatlar.

Har bir mezon maksimal **10 ball** bilan baholanadi. Shuningdek, ayrim hollarda ta'sir chorasida **salbiy ball (-5)** qo'llaniladi, bu esa baholash tizimini **rag'batlantiruvchi va jazolovchi elementlar asosida** tashkil etilganini ko'rsatadi.

Ijoiy ballar asosan yaxshi intizom, samarali faoliyat, o'z vaqtida to'lov va hisobot amalga oshirganliklari uchun mukofotlanadi. Salbiy ballar esa, mol-mulk huquqi yo'qligi, elektron hisobvara-fakturalardagi (EHF) kamchiliklar, kam rentabellik yoki eng kam ish haqidan (EKIH) past ish haqiga to'g'ri kelganligi uchun 5 ballgacha chegirib tashlanadi.

Mezonlar aniq foiz diapazonlari yoki huquqiy holatlar asosida baholanadi. Masalan, "EBITA" foizli rentabellik mezonidir: 70% dan yuqori – 10 ball, 25–50% – 2 ball yoki "EHF ulushi" tovar aylanmasining qancha foizi elektron hujjatlar bilan rasmiylashtirilganiga qarab ball beriladi. Bu yondashuv mezonlarni standartlashtirish, taqqoslash va obyektivlashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagi mezonlar quyidagicha davriylik asosida baholanadi:

- **Yillik:** rentabellik, tovar realizatsiyasi, faoliyat davomiyligi;
- **Oylik:** soliq hisobotlari, to'lovlar, ish haqi va mulk masalalari;
- **Kunlik:** soliq organlari tomonidan aniqlangan va bartaraf etilgan kamchiliklar.

Bu esa reyting tizimini doimiy monitoring qilishga moslashtirilganligini anglatadi. Baholash tartibi elektron axborot tizimlari, xususan soliq organlari, mulk huquqlari registrlari, bank to'lov tizimlari va EHF platformalari asosida amalga oshiriladi. Bu esa subyektiv xatoliklarni minimallashtiradi va baholash jarayonini avtomatlashtirishga xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektining umumiy baholash mezonlari metodik jihatdan aniq, raqamli va solishtirma ko'rsatkichlar asosida ishlab chiqilgan. Bu tizim subyektlarning soliq va moliyaviy intizomini real baholashga, rag'batlantirish mexanizmlarini adolatli qo'llashga hamda davlatning iqtisodiy boshqaruv strategiyasini raqamli ma'lumotlar asosida shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu mezonlar tizimi orqali davlat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, soliq yuki ostidagi adolatli muvozanatni ta'minlash va tadbirkorlik muhitini sifat jihatdan oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvni namoyon etmoqda.

Ballarni kamaytiruvchi ko'rsatkichlar (9 ta) – bu turdagi mezonlar tadbirkorlik subyektining moliyaviy va tashkiliy intizomidagi salbiy holatlarni aniqlashga xizmat qiladi (3-jadval). Bunga kompaniya rahbarining tez-tez almashinuvi, yuridik manzilning qisqa muddat ichida bir necha marotaba o'zgarishi, soliq qarzining majburiy undirilishi, QQS guvohnomasining amal qilish holati va boshqa noxush ko'rsatkichlar kiradi. Ushbu mezonlar korxonaning barqaror faoliyat yuritishiga tahdid soluvchi xavf omillarini aniqlab, reytingda ballar kamayishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, kompaniyani intizomli va shaffof boshqaruvga undashga xizmat qiladi.

3-jadval

Ballarni kamaytiruvchi mezonlar¹

T/r	Kamaytiruvchi mezon nomi	Baholash	Ta'sir chora	Baholash metodikasi	Mezonni hisoblash davri
1.	Oxirgi 12 oy davomida ma'lumotlar bazasidan hisobda turgan joyining o'zgartirilishi	yo'q	-5 ball	<i>Tadbirkorlik subyekting joylashgan joyi yil davomida 3 (uch) va undan ortiq o'zgartirilgan bo'lsa – 5 ball chegiriladi.</i>	Yillik
2.	Korxona rahbarining qo'nimsizligi (oxirgi 12 oy davomida)	yo'q	-5 ball	<i>Korxona rahbari oxirgi 12 oy davomida 3 (uch) va undan ortiq o'zgartirilgan bo'lsa – 5 ball chegiriladi.</i>	Oylik
3.	Ta'sischisi yoki rahbari (mulkdori)ning ishonchsizligi	yo'q	-5 ball	<i>Korxonaning ta'sischisi yoki rahbari oxirgi 36 oy davomida bankrotlik asosida tugatilgan, jinoyat sodir etgan yuridik shaxsga rahbarlik qilgan bo'lsa – 5 ball chegiriladi.</i>	Yillik
4.	Taqdim etilgan soliq hisobotlariga tuzatishlar soliq to'lovchining o'zi tomonidan ixtiyoriy kiritilishi	yo'q	-5 ball	Soliq hisobotlariga: <i>1 (bir) marotaba tuzatish kiritilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa– 1 ball chegiriladi;</i> <i>2 (ikki) marotaba tuzatish kiritilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa – 2 ball chegiriladi;</i> <i>3 (uch) marotaba tuzatish kiritilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa – 3 ball chegiriladi;</i> <i>4 (to'rt) marotaba tuzatish kiritilgan yoki o'zgartirilgan bo'lsa – 4 ball chegiriladi;</i> <i>5 marta yoki undan ortiq o'zgartirilgan bo'lsa – 5 ball chegiriladi.</i>	Oylik
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisi maxsus guvohnoma holati	yo'q	-10 ball	<i>QQS guvohnomasi bekor qilingan yoki to'xtatilgan bo'lsa – 10 ball chegiriladi.</i>	Kunlik
6.	Soliq qarzining mol-mulk hisobidan undirilishga qaratilganligi	yo'q	-5 ball	<i>Soliq qarzini undirish bo'yicha mol-mulkiga qaratilganda to'plangan ballar – 5 ballga kamaytiriladi.</i> <i>Soliq qarzi to'liq to'langandan keyin kamaytirilgan ballar olib tashlanadi.</i>	Yillik
7.	Yuridik shaxs va mansabdor shaxslarga nisbatan soliq hamda bojxona oid huquqbuzarliklar uchun ma'muriy, jinoyiy yoki boshqa javobgarlik choralari qo'llanilganligi	yo'q	-10 ball	<i>Mansabdor shaxslariga nisbatan soliqqa oid huquqbuzarliklari uchun ma'muriy javobgarlik bo'lsa -2 ball chegiriladi;</i> <i>Agar jinoiy yoki boshqa javobgarlik chora ko'rilgan bo'lsa — 10 ball chegiriladi.</i>	Yillik

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan ishlanma.

8.	Mahsulotlar (tovar va xizmatlarning) identifikatsiya kod (MXIK)laridan noto'g'ri foydalanish	yo'q	-5 ball	<i>MXIKdan bir oyda 2 va undan ortiq noto'g'ri foydalanilgan holatlar aniqlansa – 5 ball chegiriladi.</i>	Oylik
9.	Tadbirkorlik subyektlarining kreditorlik qarzdorligi oxirgi 12 oy davomida sud orqali undiruvga qaratilgan bo'lsa	yo'q	-10 ball	<i>Tadbirkorlik subyektlarining kreditor qarzdorligi mavjud bo'lgan holda kreditorlar tomonidan sudga 2 marotaba va undan ortiq da'vo arizalari kiritilganda hamda isbotini topgan bo'lsa to'plangan ballar — 10 ballga chegiriladi.</i>	Yillik

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi faqat rag'batlantirishga emas, balki salbiy holatlar uchun intizomiy baholash mexanizmlariga ham asoslangan. Ushbu yondashuv **“Ballarni kamaytiruvchi mezonlar”** orqali amalga oshiriladi. Ular korxonaning moliyaviy va tashkiliy beqarorligi, soliqqa oid intizomsizliklari, rahbariyatning ishonchsizligi va huquqbuzarlik faktlari asosida ballarni kamaytirish mexanizmini taqdim etadi.

Ballarni kamaytiruvchi mezonlar reyting tizimining **xavflarni aniqlovchi va soliq intizomini tartibga soluvchi funksiyasini** bajaradi. Ya'ni, bu mezonlar orqali davlat fiskal xatarli korxonalarni aniqlaydi, ularning reytingini pastlab, imtiyozlardan foydalana olmasligiga sabab bo'ladi. Bu tizimda “stimul va sanksiya” mexanizmi ishlaydi. Kamaytiruvchi mezonlar odatda “–5” yoki “–10” ball bilan baholanadi. Baholash mezonlari 3 turdagi metodlarga asoslanadi:

- *Chastota (ko'p takrorlanish).* Masalan, rahbar yoki manzilning 3 martadan ortiq o'zgartirilishi.
- *Huquqiy holat ya'ni* QQS guvohnomasi bekor qilinishi, sud qarorlari mavjudligi.
- *Axborot tizimidagi dalillar ya'ni* noto'g'ri MXIKlar, hisobotga tuzatishlar, mol-mulkka qaror chiqarilishi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda qo'llaniladigan ballarni kamaytiruvchi mezonlar korxonalarning moliyaviy, soliq va tashkiliy intizomidagi salbiy holatlarni aniqlashga xizmat qiladi. Metodologik jihatdan ushbu mezonlar reyting tizimining xavflarni oldindan aniqlovchi va profilaktik baholash funksiyasini bajaradi. Bu mezonlar orqali subyektlar faqat faoliyat ko'rsatkichlari asosida emas, balki ularning intizomiy va institutsional barqarorligi nuqtai nazaridan ham sinovdan o'tkaziladi.

Birinchidan, yuridik manzilning bir yil ichida uch martadan ortiq o'zgarishi faoliyatdagi beqarorlik belgisi sifatida baholanadi. Bu metodologiyada “chastota” (ko'p takrorlanish) yondashuvi asosida salbiy ko'rsatkich sifatida tan olinadi. Bunday o'zgarishlar faoliyatni yashirishga yoki nazoratni chetlab o'tishga urinish sifatida talqin qilinadi va –5 (minus besh) ball bilan baholanadi va chegiriladi.

Ikkinchidan, rahbarning tez-tez almashinuvi boshqaruv barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Metodik yondashuvga ko'ra, 12 oy davomida rahbarning uch martadan ortiq o'zgarishi ichki boshqaruvdagi beqarorlikni ifodalaydi va subyektning uzoq muddatli rejalashtirish qobiliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Uchinchidan, ta'sischi yoki rahbarning ishonchliligi mezoni esa sifat jihatidan yondashuv bo'lib, ilgari jinoyat sodir etgan yoki bankrotlikka uchragan subyektlar bilan bog'liq shaxslar ishtiroki korxonaning reytingiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu holatda reyting tizimi subyektlarning tarixiy obro'si va institutsional ishonchliligini ham inobatga oladi.

To'rtinchidan, soliq hisobotlariga takroriy tuzatishlar kiritilishi ham subyektning hisob-kitobdagi aniqlik darajasini aks ettiradi. Bu mezon metodik jihatdan "axborot ishonchliligi" prinsipiga asoslanadi. Har bir tuzatish holati bosqichma-bosqich ball kamaytirish orqali baholanadi (1 balldan 5 ballgacha), bu esa shaffoflik va fiskal intizomni rag'batlantiradi.

Beshinchidan, QQS guvohnomasining bekor qilinishi yoki to'xtatilishi eng og'ir salbiy mezon sifatida tan olingan. Bu holat subyektning QQS to'lovchisi sifatidagi maqomini yo'qotishini anglatadi va reytingda -10 (minus o'n) ball bilan baholanadi hamda chegiriladi. Bu yondashuv yuqori xavf darajasini aniqlovchi "kritik indikator" sifatida metodik asosga ega.

Shuningdek, soliq qarzlar uchun mol-mulkka qaror chiqarilishi, soliq yoki bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar, MXIKdan noto'g'ri foydalanish, va kreditorlik qarzdorligining sud orqali undirilishi mezonlari bevosita yoki bilvosita korxonaning moliyaviy barqarorligiga, intizomiga va yuridik ishonchliligiga ta'sir etadi. Bu ko'rsatkichlar huquqiy va axborot tizimlari asosida aniqlanib, aniqligi yuqori real vaqt monitoring yondashuvini ta'minlaydi.

Umuman olganda, bu mezonlar -5 yoki -10 ballgacha baholanadi va ular chastota (ko'p takrorlanish), yuridik-huquqiy holat va elektron axborot tizimidagi dalillar asosida metodik tasniflangan. Bu yondashuv nafaqat reyting tizimini adolatli va obyektiv shakllantirishga xizmat qiladi, balki soliq ma'murchiligini kuchaytirish va fiskal xatarlarni oldindan aniqlashda ham strategik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda qo'llaniladigan ballarni kamaytiruvchi mezonlar faqat mazmunan emas, balki vaqt kesimida baholanish tartibi bilan ham tizimli yondashuvga asoslanadi. Metodologik jihatdan bu yondashuv mezonlarning monitoring chastotasini aniqlaydi va ular orqali xatarli holatlarni aniqlashning tezligi va aniqligini oshiradi. **Baholash davriyligi** aniq mezonlar asosida qanchalik tez-tez tahlil va reytingga ta'sir ko'rsatilishini belgilaydi. Bu esa reyting tizimining real vaqtli, dinamik va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Yillik mezonlar strategik va uzoq muddatli barqarorlikni baholashda qo'llaniladi. Ular orasida, yuridik manzilning o'zgarishi, rahbarning tez-tez almashuvi, ta'sischi yoki rahbarning ishonchliligi, soliq yoki bojxona sohasidagi huquqbuzarliklar, kreditorlik qarzdorligining sud orqali undirilishi kabi mezonlar mavjud.

Bu ko'rsatkichlar odatda yil davomida yuzaga chiqadigan yoki yillik hisobotlar orqali aniqlanadigan salbiy holatlardir. Baholash yillik kesimda olib borilgani tufayli, bunday mezonlar asosida reytingga ta'sir ko'rsatish odatda institutsional barqarorlik, huquqiy obro' va moliyaviy mas'uliyat darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

Oylik kesimdagi baholash operativ holatni monitoring qilishga yo'naltirilgan. Bunda soliq hisobotlariga takroriy tuzatishlar kiritilishi va mahsulot va xizmatlarning identifikatsiya kodi (MXIK) dan noto'g'ri foydalanish kabi mezonlar tahlil qilinadi. Bu indikatorlar korxonaning soliq intizomi, axborot ishonchliligi va hisob yuritish sifati haqida doimiy signal berib turadi. Metodologik jihatdan, oylik monitoring reyting tizimini doimiy nazoratga moslashtiradi va holat keskin yomonlashgan taqdirda reytingga tezkor ta'sir ko'rsatish imkonini yaratadi.

Eng yuqori aniqlik va tezkorlikni ta'minlovchi daraja bu **kunlik kesimda baholanadigan mezonlardir**. Bu toifaga faqat eng muhim va bevosita reytingga ta'sir ko'rsatadigan indikatorlar kiradi. Masalan, QQS guvohnomasining bekor qilinishi yoki to'xtatilishi kabi mezonlar real vaqt rejimida avtomatik ravishda monitoring qilinadi. Bu metod

real vaqtli baholash tamoyiliga asoslanadi. Soliq ma'muriyati va reyting tizimi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri axborot almashuvi mavjud bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Bu esa reytingda kutilmagan salbiy holatlarning kechikmasdan inobatga olinishini ta'minlaydi.

Ballarni kamaytiruvchi mezonlar barqarorlik reytingi tizimining muhim qismlaridan biri bo'lib, ular orqali fiskal intizomni buzganlar ajratib olinadi, reyting adolatli va asosli shakllantiriladi hamda salbiy xatti-harakatlar profilaktik yo'sinda jilovlanadi.

Qo'shimcha ball beruvchi ko'rsatkichlar (4 ta) – bu mezonlar tadbirkorlik subyektlarining ijtimoiy va iqtisodiy mas'uliyatini baholashga qaratilgan bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi (4-jadval).

Birinchidan, ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslarni ish bilan ta'minlash orqali mehnat bozorida teng imkoniyatlar yaratish;

Ikkinchidan, ish haqi fondining sohaviy o'rtacha darajadan yuqoriligi orqali xodimlarga munosib mehnat haqi to'lash;

Uchinchidan, mahsulot yoki xizmatlarni tashqi bozorlarga chiqarish, ya'ni eksport salohiyati orqali valyuta tushumini ta'minlash;

To'rtinchidan esa, mazkur subyekt faoliyat yuritayotgan soha bo'yicha o'rtacha soliq tushumidan yuqori ko'rsatkichga erishish orqali fiskal intizom namunasini ko'rsatishdan iboratdir. Bu ko'rsatkichlar orqali reyting tizimida nafaqat moliyaviy, balki ijtimoiy va milliy iqtisodiy ustuvorliklar ham e'tiborga olinadi.

4-jadval

Qo'shimcha ballar beruvchi mezonlar (rag'batlantiruvchi)¹

T/r	Rag'batlantiruvchi mezon nomi	Baholash	Ta'sir chora	Baholash metodikasi	Mezonni hisoblash davri
1.	Tadbirkorlik subyektlari tomonidan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", ijtimoiy reyestrda va nogironligi bo'lgan shaxslar bandligi ta'minlanganda	10 ball	yo'q	Tadbirkorlik subyektlarining jami ishchi-xodimlari sonining: 10% – 20% gacha bo'lsa – 5 ball qo'shiladi; 20% dan yuqori bo'lsa – 10 ball qo'shiladi.	Oylik
2.	O'tgan hisobot davriga nisbatan (mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (1 050 ming so'm)dan ortiq ish haqi olgan) xodimlar sonining ortishi (yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari uchun o'tgan oygagina nisbatan solishtiriladi)	15 ball	yo'q	Ishchi xodimlarning yillik o'rtacha soni: 50% va undan yuqori bo'lsa – 15 ball qo'shiladi; 40–50% gacha bo'lsa – 10 ball qo'shiladi; 30–40% gacha bo'lsa – 8 ball qo'shiladi; 20–30% gacha bo'lsa – 6 ball qo'shiladi; 10–20% gacha bo'lsa – 4 ball qo'shiladi; 1–10% gacha bo'lsa – 2 ball qo'shiladi.	Oylik

¹ Muallif tomonidan tayyorlangan ishlanma.

3.	Iqtisodiy faoliyat turlariga muvofiq QQS bo'yicha bir oylik hisoblangan soliq summasining o'rtacha nisbati	10 ball	yo'q	<i>Sohaning o'rtacha hisoblangan summasining 1,1 baravaridan yuqori bo'lsa yoki jami realizatsiyaning 50% dan ortig'ini eksport tashkil qilganda – 10 ball qo'shiladi.</i>	Oylik
4.	Iqtisodiy faoliyat turlariga muvofiq aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha bir oylik hisoblangan soliq summasining o'rtacha nisbati	10 ball	yo'q	<i>Sohaning o'rtacha hisoblangan summasining 1,1 baravaridan yuqori bo'lsa yoki jami realizatsiyaning 50% dan ortig'ini eksport tashkil qilganda – 10 ball qo'shiladi.</i>	Oylik

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimida qo'shimcha ballar beruvchi (rag'batlantiruvchi) mezonlar subyektlarning ijobiy faoliyati, mas'uliyatli yondashuvi va ijtimoiy-maqsdali harakatlarini baholash uchun joriy etilgan. Bu mezonlar orqali reyting tizimi nafaqat soliq intizomini nazorat qiladi, balki ijtimoiy barqarorlik, bandlik siyosati va eksport salohiyatini rag'batlantiruvchi mexanizm sifatida ham ishlaydi.

Barqarorlik reytingi tizimida rag'batlantiruvchi mezonlar tadbirkorlik subyektining iqtisodiy samaradorligi, ijtimoiy mas'uliyati va fiskal intizomini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Metodologik yondashuvga ko'ra, ushbu mezonlar ball berish prinsipi asosida baholanadi va foizli o'sish, solishtirma nisbatlar hamda miqdoriy ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi. Bu yondashuv mezonlarni obyektivlashtirish, taqqoslash va avtomatlashtirilgan shaklda tahlil qilish imkonini beradi.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlashda "Ijtimoiy guruhlar bandligini ta'minlash" mezoni ijtimoiy adolat, inklyuziv iqtisodiy o'sish va bandlik siyosatini rag'batlantirishga xizmat qiluvchi muhim indikator hisoblanadi [6].

Mazkur mezon subyektning xodimlar tarkibida "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va ijtimoiy reyestrga kiritilgan boshqa ehtiyojmand shaxslar ulushiga qarab baholanadi:

- Xodimlar sonining **10%–20%** ijtimoiy guruhlarga mansub bo'lsa – **5 ball**;
- **20% va undan yuqori** bo'lsa – **10 ball** beriladi.

Metodik jihatdan bu mezon inklyuzivlik, manzilli yondashuv va ijtimoiy mas'uliyat prinsiplari asosida ishlab chiqilgan. Baholashda:

- Nisbatli yondashuv (proporsional model) qo'llaniladi — umumiy xodimlar sonidagi ijtimoiy toifadagi xodimlar ulushi asosida ball belgilanadi;
- Statistik integratsiya – soliq organlari axborot bazasi bandlik ma'lumotlari va ijtimoiy reyestrlar bilan uzviy bog'langan holda ishlaydi;
- Oylik asosda avtomatik monitoring – bu jarayon insoniy omildan holi, shaffof va doimiy nazorat imkonini beradi.

Ushbu mezon orqali reyting tizimi ijtimoiy ahamiyatli faoliyatni moliyaviy va fiskal jihatdan rag'batlantiradi. Ya'ni, korxona nafaqat daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanadi, balki ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan subyekt sifatida davlat tomonidan yuqori reytingga loyiq deb topiladi. Bu esa davlat tomonidan beriladigan soliq yengilliklari va preferensiyalardan foydalanish imkoniyatini oshiradi va ijtimoiy zaif qatlamlar

bandligini oshirish orqali umumiy iqtisodiy faollikni kuchaytiradi hamda davlat tomonidan yuritilayotgan bandlik siyosati va manzilli yordam mexanizmlariga xususiy sektorni jalb etadi [7].

Yuqoridagi ijtimoiy guruhlar bandligi esa, mezon barqarorlik reytingi tizimining faqat moliyaviy va fiskal ko'rsatkichlarga emas, balki ijtimoiy barqarorlik va tenglikka ham tayanuvchi mexanizm ekanini ko'rsatadi. Bu mezon orqali davlat "Mas'uliyatli tadbirkor" modelini shakllantirishga xizmat qiladi, reyting tizimi ijtimoiy maqsadlilikka ega moliyaviy baholash instrumentiga aylanadi hamda bandlik siyosati avtomatlashtirilgan baholash tizimiga bog'lanadi, bu esa davlat boshqaruvini samarali qiladi.

Barqarorlik reytingi tizimida ishchi-xodimlar sonining o'sishi mezon esa tadbirkorlik subyektning iqtisodiy faolligi, ijtimoiy mas'uliyati va rasmiy bandlikni oshirishdagi ishtirokini baholovchi muhim indikator hisoblanadi. Ushbu mezon faoliyat samaradorligi bilan birga bandlik siyosatiga qo'shilgan hissani ko'rsatadi. Baholashda faqat xodimlar soni emas, balki mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori (EKIH) dan yuqori maosh oluvchilarning o'sish sur'ati asosiy ko'rsatkich sifatida olinadi. Bu gradatsiya mutanosiblik asosida tuzilgan bo'lib, ish o'rinlari o'sishi darajasi yuqorilagan sari ballar ortib boradi. Bu tizim, o'z navbatida, rag'batlantiruvchi ta'sirni differensial tarzda ta'minlaydi. Mazkur mezon dinamik baholash modeliga asoslanadi. Ya'ni, u faqat statik sonlar emas, davriy o'sish sur'atlarini baholaydi. Baholashda quyidagi metodik tamoyillar qo'llaniladi (1-rasm).

1-rasm

Ishchi-xodimlar sonining o'sishi mezonini baholashdagi metodik tamoyillar [8; 99, 314–324]



Mazkur mezon metodologik jihatdan miqdoriy, solishtirma, va dinamik tahlilga asoslangan bo'lib fiskal manfaatlar va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi uyg'unlikni yaratadi hamda bandlikni raqamli kuzatish, avtomatik baholash va soliq ma'murchiligini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv orqali reyting tizimi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga tayangan holda, balki ijtimoiy-iqtisodiy strategik ustuvorliklarni ham baholovchi kompleks instrument sifatida shakllanmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini baholashda “*QQS bo'yicha yuqori soliq to'lovi yoki eksport ulushi*” mezonni esa subyektning fiskal intizomi va tashqi iqtisodiy faolligini ifodalovchi strategik indikator hisoblanadi. Bu mezon korxonaning nafaqat ichki bozor faoliyati, balki xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi va eksport salohiyati darajasini ham aniqlash imkonini beradi.

Mazkur mezon bo'yicha 10 ball quyidagi ikki shartdan biri bajarilganda belgilanadi:

- Korxona tomonidan QQS bo'yicha hisoblangan oylik soliq summasi tegishli iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha shakllangan sohaviy o'rtacha ko'rsatkichning 1,1 baravaridan yuqori bo'lsa;
- Korxonaning umumiy realizatsiyasida eksport hajmi 50% va undan ortiq ulushni tashkil etsa.

Bu ball berish mexanizmi solishtirma va nisbatli baholash yondashuvi asosida tuzilgan bo'lib, uni obyektivlashtirish va elektron tarzda avtomatlashtirish mumkin. Ushbu mezon ikkita turli, ammo muhim fiskal va iqtisodiy indikatorlar asosida baholanadi: QQS bo'yicha to'lov darajasi va eksport ulushi. Metodologik jihatdan bu yondashuv quyidagilarga asoslanadi:

1. **Solishtirma nisbatlar metodi (relative benchmarking)** – QQS summasi boshqa korxonalar bilan sohaviy kesimda taqqoslanadi. Bu yondashuv subyektning real fiskal yukni qanchalik to'g'ri va barqaror bajarayotganini aniqlaydi.
2. **Eksport ulushi modeli** – umumiy tushumdagi eksportning 50% dan yuqori bo'lishi subyektning tashqi iqtisodiy bozorlarga chiqish salohiyati, raqobatbardoshligi va valyuta tushumiga qo'shgan hissasini ifodalaydi. Bu indikator **milliy iqtisodiyotning ochiqligi va barqaror valyuta oqimi** bilan bog'liq.
3. **Ikkilamchi shartli yondashuv** – mezon baholashda “yoki” tamoyili qo'llaniladi: ya'ni, subyekt bu mezondan ball olish uchun ikki shartdan faqat bittasini bajarsa yetarli bo'ladi. Bu esa turli faoliyatdagi subyektlarga teng imkon yaratadi.

Ushbu mezon davlat fiskal siyosatining quyidagi strategik maqsadlariga xizmat qiladi shuningdek, fiskal yukni halol va barqaror bajarayotgan subyektlar reytingda yuqori baholanadi hamda tashqi bozorga chiqqan korxonalar valyuta tushumining asosiy manbai sifatida iqtisodiy ustuvorlikka ega bo'ladi Bunda subyekt nafaqat soliqlarni to'laydi, balki eksport orqali mamlakatning savdo balansiga ijobiy hissa qo'shadi. Umuman olganda mazkur mezon reyting tizimining iqtisodiy ustuvorliklarga asoslangan, manzilli va strategik yo'naltirilgan baholash vositasi ekanini ko'rsatadi.

Aylanmadan olinadigan soliq summasining yuqori nisbati yoki eksport ulushini metodologik tahlil qiladigan bo'lsak, mazkur mezon tadbirkorlik subyektining savdo aylanmasi hajmi, fiskal intizomi va eksport salohiyatini baholashga qaratilgan muhim indikatorlardan biridir. Reyting tizimida ushbu mezon orqali subyektning rasmiy aylanmasi va tashqi bozorlar bilan integratsiyalashgan darajasi aniqlanadi.

Subyekt tomonidan aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha hisoblangan oylik to'lov summasi o'ziga mos faoliyat yo'nalishidagi korxonalar o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'lsa yoki subyektning umumiy realizatsiyasida eksport ulushi 50% va undan ortiq bo'lsa — maksimal 10 ball beriladi. Bu yondashuv solishtirma nisbatlar va shartli o'lchov birliklari asosida qurilgan, bu esa uni avtomatlashtirilgan tarzda baholashga imkon beradi. “Aylanmadan olinadigan soliq summasining yuqori nisbati yoki eksport ulushi” mezonni metodologik jihatdan, sohaviy o'rtacha ko'rsatkichlarga asoslangan solishtirma yondashuvni, eksport salohiyatini

tashqi iqtisodiy ustuvorlik sifatida e'tirof etishni, raqamli nazorat va avtomatik baholash imkoniyatini o'zida mujassam etgan. Ushbu mezon fiskal intizomni, savdo aylanmasining shaffofligini va xalqaro raqobatbardoshlikni bir vaqtning o'zida o'lchash imkonini beruvchi kuchli reyting vositasidir.

Yuqoridagi qo'shimcha ballar beruvchi mezonlar barchasi **oylik asosda** baholanadi. Bu esa korxonalar faoliyatini tezkor baholash va ularni dinamik nazorat qilish imkonini beradi. Shuningdek, bu tartib doimiy ijobiy faoliyatni saqlab turishni talab qiladi, ya'ni bir martalik emas, tizimli natijalar rag'batlantiriladi. Mezonlar avtomatlashtirilgan elektron platforma orqali (soliq organlari, ish haqi jamg'armasi, eksport bazalari bilan integratsiyalashgan holda) shakllantiriladi. Bu esa insoniy xatolarni kamaytiradi va xolislikni ta'minlaydi.

Umuman olganda qo'shimcha ballar beruvchi (rag'batlantiruvchi) mezonlar, reyting tizimiga ijtimoiy va iqtisodiy maqsadlilik bag'ishlaydi. Yaxshi boshqaruv, bandlik va tashqi iqtisodiy faoliyatni mukofotlaydi. Soliq intizomi va byudjetga ishonchli tushumlarni mustahkamlaydi.

Ushbu mezonlar orqali reyting tizimi nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarga, balki ijtimoiy mas'uliyat va makroiqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi xulq-atvorlarga ham tayanadi. Natijada, davlat tadbirkorlik subyektlarni nafaqat nazorat qiladi, balki ularni hamkorlikka undaydi va rag'batlantiradi.

Xulosa. Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tizimi O'zbekiston iqtisodiy siyosatida yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur tizim tadbirkorlik faoliyatini faqat moliyaviy ko'rsatkichlar asosida emas, balki soliq intizomi, ijtimoiy mas'uliyat, tashkiliy barqarorlik va institutsional ishonchlilik nuqtai nazaridan ham kompleks baholash imkonini yaratadi. 23 ta mezon asosida shakllangan reyting metodologiyasi ijobiy va salbiy indikatorlar, shuningdek, rag'batlantiruvchi elementlar orqali iqtisodiy faoliyatni raqamli, shaffof va obyektiv tarzda tahlil qiladi.

Tizimning ustun jihatlaridan biri bu balli baholash modelining aniqlik, avtomatlashtirish va solishtirish imkonini beruvchi yondashuvlarga asoslanishi hamda barcha indikatorlarning statistik, huquqiy va axborot manbalariga integratsiyalashgan holda shakllantirilishidir. Baholashning yillik, oylik va kunlik kesimda amalga oshirilishi esa reyting jarayonining real vaqtli, dinamik va moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi.

Reyting mezonlarining motivatsion va jazolovchi mexanizmlarga ega bo'lishi, tadbirkorlarni intizomli, halol va ijtimoiy mas'uliyatli faoliyat yuritishga undaydi. Xususan, yuqori reyting bahosiga ega subyektlarga soliq imtiyozlari, davlat resurslaridan ustuvor foydalanish va boshqa preferensiyalar taqdim etilishi esa, tizimning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, past reytingli subyektlar uchun ta'sir choralarining mavjudligi iqtisodiy tartib va javobgarlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Nazariy jihatdan esa, reyting tizimi axborot asimmetriyasini bartaraf etuvchi, iqtisodiy xavfsizlikni kuchaytiruvchi va resurslar taqsimotini adolatli amalga oshiruvchi mexanizm sifatida muhim o'rin tutadi. U institutsional iqtisodiyot, rag'batlantiruvchi nazariya va axborot iqtisodiyoti tamoyillari bilan uyg'unlashgan holda ishlaydi.

Umuman olganda, tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi tizimi orqali davlat tomonidan xususiy sektorga nisbatan axborotga asoslangan, manzilli va ochiq yondashuvni qaror topishiga xizmat qilmoqda. Bu tizim iqtisodiy islohotlar samarasini kuchaytirish, sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, byudjet tushumlarining prognozligini oshirish va davlat-

xususiy sektor o'rtasida ishonchli aloqalarni rivojlantirishda zamonaviy va barqaror boshqaruv vositasi sifatida o'zini namoyon qilmoqda.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Mirziyoyev Sh. M. (2024). 2024-yil 5-yanvar kuni Shavkat Mirziyoyev tadbirkorlarning barqarorlik reytingini joriy qilish bo'yicha taqdimot bilan tanishtirilishdagi nutqi". <https://yuz.uz/uz/news/tadbirkorlarning-barqarorlik-reytingi-joriy-qilinadi>.
2. Robert M. Solow. (1988). *Growth Theory: An Exposition*. Oxford University Press. ISBN: 0195056094, 9780195056099.
3. William J. Baumol. (1996). Entrepreneurship: Productive, unproductive, and destructive. *Journal of Business Venturing*, 11(1), 3–22. [https://doi.org/10.1016/0883-9026\(94\)00014-X](https://doi.org/10.1016/0883-9026(94)00014-X)
4. Jeffry A. Timmons. (1989). *The Entrepreneurial Mind*. Brick House Publishing Company. ISBN: 0931790840, 9780931790843. – p.187.
5. Kuckertz, A., & Wagner, M. (2010). A Systematic Literature Review of Sustainable Entrepreneurship Metrics. *Journal of Business Venturing Insights*, 14, 1–14.
6. Tivonen, M., Korhonen, J., & Jussila, J. J. (2019). Sustainability and entrepreneurship: A bibliometric review and research agenda. *Sustainability*, 11(9), 2681.
7. Shane, S. (2003). *A General Theory of Entrepreneurship: The Individual-Opportunity Nexus*. Edward Elgar Publishing. ISBN: 9781840648780.
8. Acs, Z. J., & Audretsch, D. B. (2005). *Handbook of Entrepreneurship Research: An Interdisciplinary Survey and Introduction*. Springer.
9. Casson, M. (2003). *The Entrepreneur: An Economic Theory* (2nd ed.). Edward Elgar Publishing.
10. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. Free Press.
11. Porter, M. E. (2008). *On Competition*. Harvard Business Review Press.
12. OECD. (2010). *Entrepreneurship at a Glance 2010*. OECD Publishing.
13. OECD. (2017). *Measuring Entrepreneurial Performance: A Policy Toolkit*. OECD Publishing.
14. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 55-son qarori. 2024-yil, aprel.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 39-son qarori.
16. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). (2025). 30-dekabr. – 402 bet.
17. Kraus, S., Clauss, T., Breier, M., Gast, J., Zardini, A., Tiberius, V., & Brem, A. (2019). Entrepreneurial orientation and sustainable development: A configuration approach. *Journal of Business Research*, 99, 314–324.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 4 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).